

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbasjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI..... 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI..... 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARNING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA..... 26-31

Xoliqova Ra'noxon

"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,

GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMIYATI..... 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN..... 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'liqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI..... 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH..... 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES..... 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK

QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munajat

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA

DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANITAR QADRIYATLARGA

NISBATAN ASIMMETRIK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI..... 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMIY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI..... 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFIKMLARNING MILLIY –

MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA..... 96-99

Bahromjonova Shahnoza

HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMIY MEROSI:

FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL..... 100-102

Ayimbetova Damekhan

ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI

TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI..... 104-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QAROR,

UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION..... 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOIYILINING XALQARO QONUNCHILIK

AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

Исмоилов Бехрузбек	
ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	124-129

PEDAGOGIKA FANLARI

Qo'shmurodova Aziza	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....	130-133

Mamatqosimova Nodira	
SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	134-137

Sattoriy Shohruh	
TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138-141

Jabborova Umida	
TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	142-144

Xujanazarova Nozima	
RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARNI YARATISH.....	145-148

Aripjanova Dinora	
RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....	149-151

Dosanova Gulbanu	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....	152-154

Isokov Ravshanbek	
INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....	155-160

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza	
XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RN.....	161-163

Nabiyeva Umida	
GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOIYILLARI.....	164-166

PSIXOLOGIYA FANLARI

Polvanov Rasulbek	
INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH.....	167-172

Усманова Лилия	
ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....	173-176

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI

Ro'ziyev Temur

Erkin tadqiqotchi

Tel: +998 91 147 37 91

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda adabiy-estetik qarashlar shakllanishida tafakkur (aql-idrok, mantiqiy tahlil) va tuyg'u (ichki kechinma, hissiy sezgi) omillarining o'zaro aloqasi va ahamiyati tahlil etiladi. Inson tafakkuri badiiy obrazlar orqali ifoda topgan fikrlar tizimini belgilasa, tuyg'ular ushbu obrazlarni sezgirlik va estetik ifoda bilan boyitadi. Tadqiqotda adabiy ijodda tafakkur va tuyg'u uyg'unligi orqali estetik mazmun yaratilishi, bu jarayonda adibning ichki olami qanday aks etishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy adabiy namunalarda bu ikki unsur qanday nisbatda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Ishda estetik-falsafiy yondashuvlar, adabiy tahlil va psixologik metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslar, o'qituvchilar va ijodkorlar uchun nazariy-amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: tafakkur, tuyg'u, estetik qarash, adabiy tafakkur, sezgining roli, ijodiy jarayon, badiiy idrok, emotsional ta'sir, fikr va hissiyot uyg'unligi, estetik anglash.

THE ROLE OF THOUGHT AND EMOTION IN LITERARY-AESTHETIC PERSPECTIVE

Ruziyev Temur

Independent researcher

Fergana, Uzbekistan

Annotation. This thesis analyzes the interrelation and significance of two key elements—thought (intellect, logical analysis) and emotion (inner experience, emotional perception)—in the formation of literary and aesthetic views. While human thought defines the system of ideas expressed through artistic imagery, emotions enrich these images with sensitivity and aesthetic expression. The study demonstrates how the harmony of thought and feeling in literary creativity contributes to the creation of aesthetic meaning and reveals the reflection of the author's inner world in this process. It also examines the proportion and interaction of these two components in both historical and contemporary literary examples. The research applies aesthetic-philosophical approaches, literary analysis, and psychological methods. The findings have theoretical and practical value for literary scholars, educators, and creative writers.

Key words: thought, emotion, aesthetic view, literary thought, role of perception, creative process, artistic perception, emotional impact, harmony of thought and feeling, aesthetic understanding.

Qadimgi davrlardan to bugungi kungacha badiiy ijod jarayoni va unda ijodkor didining uning estetik qarashlariga mutanosibligi haqida bir qancha qarashlar mavjud. Bular da asosiysi ijodkorning adabiy-estetik qarashlari o'z aksini topganligi bilan izohlanadi. Estetik konsepsiyaning mavjudligi yozuvchi ijodiy mahsulining qay darajadagi badiiy saviyada yuzaga kelishi, adabiy-tarixiy jarayondagi o'rni va ta'sir kuchini belgilaydi. Yunon faylasufi Arastu "Poetika" asarida ijod va ijodkorlik tushunchasiga to'xtalar ekan, ijodkor voqelikni qanday bo'lsa shunday tasvirlamaydi, degan qarashlarga munosabat bildirib, "...shuni aytish mumkinki, shoir hayotda qanday bo'lish kerakligini (ham) tasvirlaydi: Sofoklning aytishicha, u odamlarni qanday bo'lishi kerak bo'lsa shunday tasvirlagan, Evriped esa qanday bo'lsa o'shanday tasvirlagan"[1, 65-b]. Ko'rinib turibdiki, Arastuning fikricha, badiiy asarda hayot voqeligini qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlash ham mumkin. Ayni paytda, ijodkorning idealiga mos

ravishda qanday bo'lishi mumkinligini tasvirlash ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarashlardan kelib chiqib alloma san'at asaridagi voqelik ijodkorning estetik didi, hayotiy pozitsiyasi tufayli hayotdagiga nisbatan ta'sirchan va go'zalroq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. "Umuman olganda, – deb yozadi faylasuf, – poeziyadagi mumkin bo'lmaydigan narsani "hayotdagidan yaxshiroq" degan ma'noda yoki "hayot haqida odamlar shunday o'ylashadi", degan ma'noda tushunish kerak. Chunki poeziyada mumkin bo'ladigan narsani odam ishonmaydigan qilib tasvirlashdan ko'ra, mumkin bo'lmaydigan narsani ishonarli qilib tasvirlash yaxshiroqdir".

Bunday fikrlar Sharq va G'arb mumtoz adabiyoti, uyg'onish davri va yangi adabiyot namunalari bilan parallel ravishda rivojlanib takomillashib borganini alohida ta'kidlash lozim. Gomer, Dante, Shekspir, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Dostoevskiy kabi G'arb, Firdavsiy, Rudakiy, Rumiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy, Navoiy, Bobur kabi Sharq allomalari ijodidan bu masalaga doir noyob fikrlarni topish mumkin. Zamonaviy adabiyot va adabiyotshunoslik, boshqa gumanitar sohalarida ham ijod tushunchasi diqqat markazida turadi. Faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, san'atshunoslar, adabiyotshunoslar, nafosatshunoslarning ilmiy-ijodiy izlanishlarida mazkur masala u yoki bu jihatiga ko'ra o'rganilib keladi. "Ijod – insonning yangilik yaratishga qaratilgan konstruktiv faoliyati. Zamonaviy falsafada ijod talqiniga ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, ulardan birinchisida ijod jarayonida intellekt fenomeniga alohida ahamiyat berilsa, ikkinchi yondashuvda shaxsning erkinligi asosida yotadigan ekzistensiallikka urg'u beriladi." [2, 123-b] Falsafa va estetikaga oid darslik va qo'llanmalarda ijod ikkiga – ilmiy va badiiy ijodga bo'linib tasniflanadi.

Psixolog olim A.Kovalyov "Psixologiya literaturnogo tvorchestva" nomli monografiyasida badiiy ijod psixologiyasining muhim yo'nalishlari haqida fikr yuritarkan, badiiy ijod psixologiyasini 3 bosqichga bo'lib o'rganish lozimligini tavsiya qiladi:

I. Yozuvchining tarjimai holi va adabiy faoliyati. O'n sakkiz bo'limdan iborat qilib belgilangan bu bosqichda A.Kovalyov ijodkorning tug'ilgan joyi va vaqtdan tortib, oilaviy sharoiti, tarbiyalanish darajasi, oila a'zolari, bolaning yoshlikda eshitgan ertak va hikoyalarga bo'lgan munosabati, tabiatidagi o'ziga xosliklari va atrof-muhitdagi voqea-hodisalarga munosabati, musiqa, teatr va boshqa san'at turlariga qiziqishi, badiiy asar yaratishga bo'lgan dastlabki intilishlari, ilm olishga bo'lgan istagi, adabiy insholari va ularning bahosi, adabiy tugaraklarga a'zoligi, ijodiy urinishlari va unga bo'lgan munosabati, adabiy ta'lim va adabiy ta'sir, yosh ijodkor asarlariga adabiy jamoatchilikning munosabati masalalarini kiritadi.

II. Yozuvchi shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar. Ushbu bosqich o'n bo'limni o'z ichiga oladi. Unda ijodkor shaxsiyatiga xos bo'lgan qator xususiyatlar belgilanadi. Bunga A.Kovalyov yozuvchining atrof muhitdan olgan taassurotlari, kuzatuvchanligi, eslab qolish salohiyati, ichki sezgi, intuitiv qobiliyati, ijodiy tasavvurining darajasi, tabiat va insonlarga bo'lgan munosabati, estetik didi, ishonтира olish san'ati, o'ziga bo'lgan talabchanligi, mehnatsevarligi kabi masalalarni kiritadi.

III. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi. Bu bosqichni olim olti punktdan iborat qilib belgilaydi. A.Kovalyovning fikricha, bu bosqichda yozuvchi ko'proq qaysi janrda ijod qilishni yoqtirishi, asar yaratishga undovchi turtki (impuls), o'ylangan fikr va uning asarga ko'chishi, asarning yaratilishi, reja tuzish va uning xarakteri, asarlaridagi so'z boyligi, yozma va xalq og'zaki ijodidan foydalanish salohiyati, ish uslubi kabi masalalarni kiritadi. Bir qarashda bu tasnif va ijod bosqichlariga berilgan ta'riflar yangidek tuyuladi. Ammo diqqat bilan qaraladigan

bo'lsa, ko'rsatilgan birinchi bosqich ijodkor biografiyasi, ikkinchi bosqich ijod jarayoni, uchinchi bosqich ijodkor laboratoriyasiga doir mavjud qarashlar va xulosalarning umumlashmasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunga qaramasdan bunday bosqichlar tasnifi yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga kirish va uni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi. Shu o'rinda nemis faylasufi Gegelning "Estetika" asarida ilhom va ijodiy mahorat, mehnat haqidagi, ratsionallik asosida irratsionallik etisha olmagan cho'qqiga erishish mumkin, degan g'arbona mulohazasiga e'tibor qarataylik. "Faqat fikrlash, tirishqoqlik va mashq bilan hech qanday ilhom etisha olmagan mahoratga ham erishish mumkin. Ushbu mulohaza M.Gorkiy aytgan iste'dodning 99 foizi mehnat degan fikrning genezisidek taassurot qoldiradi. Biroq, bir foiz iste'dod, ilhom bo'lmasa, haqiqiy san'at asari yaralishi dushvor. Faqat, ratsionallikka asoslangan badiiy ijod kitobxonga estetik zavq berishi, ko'ngil torlarini chertishi qiyin. Ijodiy jarayon haqida boshqa qator yozuvchi va olimlarimizning kuzatishlari ham mavjudki, ular badiiy asar yaratishning sir-asrorlarini o'rganishimizga yordam beradi. Badiiy ijodda ilhomning o'rni masalasiga e'tibor qaratib, A.Oripov, O'.Hoshimov, E.Vohidovning ilhomning badiiy ijod jarayonidagi o'rni borasidagi fikrlariga urg'u beradi. Ilhomning hissiy ta'sir kuchi haqida L.N.Tolstoy asarlaridan tortib, A. Qahhor, P.Qodirovgacha, shoir M.Isakovskiy qarashlaridan G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtorning fikr-mulohazalariga qadar muqoyasaga tortadi. Bu kuzatishlardan ilhomning barcha ijodkorlarga xos bo'lgan mushtarak va ma'naviy-ruhiy jihatlari, ijodkorning o'z-o'zini, o'zligini izlash jarayoni ekanini anglab olamiz. "Ilhom bepoyon ijodiy jarayonning bir parchasi, badiiy asar yaratish tizimidagi san'atkorning muayyan bir holati. Lekin ilhomsiz yaxshi asar yaratish mumkin emasligi ham ayon bo'ldi", deb yozadi bu haqda olim[3;23-b]. Adabiyotshunoslikda ilhomning ikki darajasi farqlanishini aytar ekan, uning "birinchisini – mo'tadil ilhom va ikkinchisini – zavqu shavqqa to'liq ilhom (vdoxnovenie – effekt) deb" ataydi 2. Olimning ta'kidlashicha, birinchisisiz asar yozish mumkin emas, ikkinchisisiz ijod qilsa bo'ladi. Mo'tadil ilhomda ijodkor uning ta'sirini his qilsa-da, xotirjamlik bilan o'z g'oyaviy- 26 estetik maqsadini yoritishda ongli ijod jarayonini yaratadi. Bu holat barcha asarlar yaratilishi uchun xos xususiyat. Ikkinchi holat esa epigrafdan keltirilgan U.Nosirning "Ilhomimning vaqti yo'q, selday keladi // Rahm etmay, jalloddek dilni tiladi..." misralarida aks etgan oniy holatda "lov" etib paydo bo'ladigan va quyma misralar to'kilishiga zamin yaratuvchi "kayfiy" holatdir. Munaqqid ushbu holatning turli yozuvchi va aktyorlar hamda kitobxonlar xotiralari orqali yoritadi. Demak, ilhom ijodkor qalbini o'rtayotgan nido, dardni yuzaga chiqaruvchi, o'zligini namoyon etuvchi, ijodiy zavq, tasalli beruvchi g'ayrushuriy yaratuvchilik quvvatidir. Psixanalitiklar qarashiga suyangan adabiyotshunos olim Jabbor Eshonqul "Ilhom aql bug'ib qo'ygan, aqliy faoliyat to'xtatib qo'ygan ong osti hislarining birdan yuzaga qalqib chiqishidir" deya ta'rif beradi. Ilhom ijodiy jarayonda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ilhom onlarida har bir ijodkor turfa ruhiy holatni, jazavani boshidan kechiradi. Abdulla Sher o'zining ijod va ijodiy jarayon haqidagi kuzatishlarida jahon adabiyotining ko'plab ijodkorlari hayotidan misollar keltirib, bu jarayonning o'ziga xosligini ko'rsatadi. A.Sherning yozishicha: "Motsart musiqiy g'oyalar unga xuddi tush kabi beixtiyor kelishi, Hofmann ijod paytida qandaydir chetdagi sirli odamning aytganlarini qilishini, Gyote ko'pgina she'rlarini telbagazak (lunatik) holatida yozganini aytgan. Ba'zi ijodkorlarda ilhomning tushda kelishi ham tez-tez uchrab turadi. Chunonchi, S.T.Kolrij "Kublaxon" dostonini tushida yozganini, Sergey Eseninining rafiqasi Esenina ulug' rus shoirining yarim kechada uni uyg'otib, tushida "kelgan" she'rlarini yoddan aytib yozdirgani adabiyot tarixidan bizga ma'lum".

Demak, ilhom jazba, tush va vahiylikka daxldor anglanmagan ruhiy holatdir, deb qabul qilishimiz mumkin. Hotam Umurov e'tibor qaratgan yana bir narsa bu yozuvchining badiiy mahorati masalasidir. Yozuvchi muayyan g'oyani yoritish uchun, avvalo, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib, uni qalbidan o'tkazib, ko'pchilikka xos umumlashma mazmun bilan boyitadi. Bunda mazmun va shaklning mutanosibligiga katta e'tibor qaratadi. Har bir obrazining hayotiylikiga e'tibor qaratib, o'zining his-kechinmalari-yu tuyg'ularini asar ruhiga singdirib yuboradi. Shu tariqa badiiy asarning yuquvchanligini, samimiyligini ta'minlashga harakat qiladi. Bular barchasi yozuvchi mahorati tufayli namoyon bo'ladigan, badiiy mahoratni oshirib borishdagi uzluksiz izlanishlar jarayonidir. Badiiy mahorat ham ushbu jarayonda ijodiy reja va uning paydo bo'lishi qog'ozga ko'chishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ijodiy reja birinchi bosqich bo'lsa, keyingi bosqich yozish, badiiy so'zda ifodalash jarayonidir. Badiiy asar rejasi astasekinlik bilan pishib, etilib borishini homila bilan qiyoslasa bo'ladi. Xuddi ona organizmida ro'y berayotgan fiziologik, psixologik o'zgarishlar kabi yozuvchi ongu ruhiyatida ham shunday jarayonlar kechishi muqarrar. Shu bois badiiy reja va ijod jarayoni yaxlit hodisa, deb qaraladi va bunda albatta, yaratilgan badiiy asar yozuvchi shaxsiyatidan uzilib, mustaqil "yashash" salohiyatiga ega bo'lishi kerak. Ijodkor va ijodiy jarayon, yozuvchi "men"i xususida fikr yuritgan X.Do'stmuhammad qarashlari g'oyat e'tiborli va ayni masalada bizning fikrimizga hamohang: "... ijodkor inson tashqi dunyoni idrok etib, idrok etganlarining barini qalb va shuur chig'irig'idan o'tkazib pirovardida obraz yaratayotgan chog'ida qanday ruhiy jarayonlar yuz bersa, ularning bari badiiy tafakkurning to'laonililigini ta'minlashga xizmat qiladi... Ijod ahlining yangicha uslubiy yondashuvlari, avvalo, hayot haqiqatiga mutlaqo shaxsiy "men"i orqali emin-erkin yondashish, badiiy haqiqatga aylantirishda vosita bo'lmish tipiklashtirish, o'xshatish, ramziylik, konflikt yasash, g'ayri reallik va hokazo adabiy unsurlardan erkin foydalanishi bilan yuzaga chiqadi". Badiiy asarda namoyon bo'luvchi bu xususiyatlar, g'oyaviy-badiiy motivlar badiiy asar yozuvchidan uzilib, "mustaqil yashashga" o'tgandan keyin umumbashariy mohiyat kasb etadi. Ijod bu – ong va his-tuyg'uning birikishidan yaraladi, degan qarash adabiyotshunoslar o'rtasida barqaror. Inson tafakkuri va tuyg'u-tasavvurlar olami bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir. Inson aql-zakovati qalb kechinmalari bilan bir nuqtada birlashib, badiiy asarning g'oyaviy-estetik asosini yaratadi. Agar badiiy asar g'oyasining shakllanib, pishib etilishida inson ong va tafakkuri qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, uning ifoda yo'sinida, inson qalb kechinmalari talqinida tasavvurning ahamiyati shunchalik oydinlashadi. "Tasavvur – sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida hukm, tushuncha, xulosa shakllarida yuzaga keladi"[4; 36]. "Tasavvur asosan, qayta tiklangan idrokdir. Biroq obrazning tasavvuri uning dastlabki idrokidan bir muncha farq qiladi. Tasavvur odatda idrokdan xiraroq bo'ladi. Faqat ayrim kishilardagina tasavvur yorqin bo'ladi, ba'zi yozuvchi, rassom, kompozitorlar guyo o'z suratlari, romanlari, operalari qahramonlarining obrazini ko'rayotgandek va eshitayotgandek bo'ladilar. Rassom Ayzovskiy o'z suratlarini dengiz stixiyalarini cheksiz suratda ko'rish asosida hosil bo'lgan tasavvurlar asosidagina chizgan. Rassom Levitan etyudlarini naturadan chizgan bo'lsa ham ko'pchilik asarlarini tasavvuri asosida yaratgan. Kompozitorlardan Motsart bilan Betxovenlar o'zlari yaratayotgan musiqani juda aniq eshitganlar. YOzuvchi Goncharov o'z asarlari qahramonlarini ochiq-oydin

“ko‘rgan” va “eshitgan”. Ijodiy jarayonga xos bo‘lgan yana bir muhim xususiyatlardan biri ijodiy dardning bo‘lishidir. “Dard” tushunchasi badiiy ijodda o‘zining lug‘aviy ma‘nosidan kengroq mazmunga ega bo‘lib, umumbashariy mohiyat kasb etuvchi hodisadir. Dard yozuvchining hayot haqida, inson umrining o‘tkinchiligi, abadiyatga daxldor hodisalar kabi umumbashariyatga molik masalalar xususidagi o‘ymushohadalaridan tortib xiyonatu diyonat, e‘tiqodu etiqodsizlik, sevgi-vafo va vafosizlik, insoniy burch va h.k. umuminsoniy xislatlar haqidagi estetik prinsiplarigacha qamrab oluvchi jarayondir. Yozuvchi badiiy asar yaratish asnosida shunchaki voqealar silsilasi yoki qahramonlar kechmishini tasvirlab qo‘ya qolmaydi, balki ularning mohiyatiga o‘zining ushbu mohiyatga daxldor bo‘lgan dardlarini singdirib yuboradi. Bejiz bu haqda F. Kafka “San’atkor uchun ijod – iztirob, bu vosita orqali u yuragini yangi iztiroblar uchun bo‘shatib oladi”[5;105-b], degan fikrni bildirmagan. Izitirob, dardsiz ijod namunasi nihoyatda qashshoq, hissiz va nursiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham badiiy asarni mutolaa qilgan kitobxon unda eng avvalo mohiyatga yashiringan yozuvchi “men”ini, uning shaxsiyatini, dardu dunyosini his qiladi, 30 asar orqali yozuvchi qalbiga yo‘l oladi. Demak, ijod jarayoni, badiiy asarning yaratilishi, xuddi homilaning tug‘ilish jarayonidagi kabi o‘ziga xos to‘lg‘oqli “dard”lardan iboratdir. “Dard, iztirobning surunkali holatga o‘tishi iste’dod deyiladi”. Ijod jarayonining yana bir xususiyati yozuvchi intuitsiyasiga aloqadorligidadir. Odatda, badiiy asar haqida gap ketganda u ilohiyotga daxldor hodisa sifatida ta’riflanadi. Darhaqiqat, ijod jarayonida shunday ruhiy holatlar, kechinmalar, jarayonlar ro‘y berishi mumkinki, ularni so‘z bilan ifodalashdan ko‘ra his qilib tushunish osonroqdir. “Intuitsiya (lot.intueri – yaxshilab diqqat bilan qaramoq) – voqelikni bilishning bevosita haqiqatga aylanishi bilan amalga oshiriladigan alohida usul bo‘lib, uning yordamida “muammoli vaziyatlar” echimini topishi mumkin, u ijodiy faoliyat mexanizmi sifatida tushuntiriladi. Intuitsiya tafakkurda masalaning echilishini bir onda to‘satdan anglash sifatida ham tushuniladi”[6;4-b]. Intuitsiya ijodkorni ijod jarayonida g‘ayb olamiga boshlab boruvchi o‘ziga xos vositadir. Cho‘lponning “Men shoirmi?”, “Go‘zal” yoki bo‘lmasa, Usmon Nosirning “Yana she‘rimga” kabi she‘rlarida aks etgan ruhiy po‘rtanalarni faqat ongi anglam orqali shunchaki baholab bo‘lmaydi, balki ulardagi ilohiylik bilan bog‘langan o‘rinlarni qalban his qilib talqin etish lozim. Zero, inson qalbining o‘zi shoir aytganidek “anglab bo‘lmas sirdir”. Muallif adabiy-estetik qarashlari poetik talqinni shakllantiruvchi ijodiy kategoriya sifatida Badiiy ijod jarayoni uch muhim bosqichni qamrab oladi. Bularning birinchisi asar yozilguncha bo‘lgan tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda yozuvchi badiiy asar uchun mo‘ljallangan voqea-hodisalar, hayotiy shaxsiyatlar, detallar, joy, vaqt va h.k.larni saralaydi. Yon daftarida qayd etilgan dalillar, jumla, ibora, so‘zlarni asar kompozitsiyasining qaysi o‘rniga joylashtirish haqida fikr yuritadi. Xayolida, tafakkurida asar kechadigan “sahna” dekoratsiyasini tayyor holga keltiradi. Ikkinchi bosqich yozish jarayoni bo‘lib – bu, ijodiy jarayon uchun o‘ta muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda butun boshli jumlar, so‘zlar, personajlar, hatto bir butun motivlaru badiiy manzaralardan ham voz kechishga to‘g‘ri kelishi ehtimoldan xoli emas. Bunday holatlarni L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, T.Drayzer, P.Merime, O.de Balzak, A.Qodiriy, Oybek, G.G‘ulom, S.Moem, M.Bulgakov, M.Sholoxov, A.Qahhor, J.Joys, F.Kafka, G.Markes, O.Yoqubov, P.Qodirovlarning ijodiy jarayonida istagancha uchratishimiz mumkin. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, ijodiy jarayonga doir mana shu uch muhim bosqichning qanday kechishi, pirovard natijada tayyor “sifatli mahsulot” sifatida o‘quvchiga etib borishi yozuvchining adabiy-estetik qarashlari, uning nazariy-poetik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Adabiy-estetik qarashlari yuksak darajada shakllangan,

o'zining badiiy-estetik pozitsiyasiga ega bo'lgan muallifgina qayd etilgan uch ijodiy bosqichning har birini badiiy asar muvaffaqiyatiga aylantira oladi. Aks holda o'rtamiyona yoki undan ham past darajadagi "asarlari" paydo bo'lishi mumkin. Haqiqatan ham, dunyoga kelayotgan, poetik hodisaga aylanayotgan hodisaning ijrochisi ham, shu jarayonni tahlil va talqin qilib muayyan shakl va mazmun asosida namoyon bo'lishini nazorat qilayotgan, uning butun go'zalligi, jozibasi va nafosatini to'laligicha his qilayotgan dastlabki o'quvchi ham ijodkorning o'zidir. Bu o'rinda bularning bari bitta shaxs –ijodkor shaxsiyatida jamlanadi. Endilikda asar muallifi "o'quvchi-munaqqid"ga aylanadi. Shu tariqa ijodkorning adabiyestetik qarashlari va ijodiy prinsiplarining shakllanishiga asos vujudga keladi. SHoir va yozuvchilarning badiiy asar, uning spetsifikasi, asar tarkibidagi poetik komponentlar, qolaversa butun boshli adabiy jarayon haqida muayyan adabiy-ilmiy qarashlari, xulosalari maydonga keladi. Ular ba'zan badiiy asar tarkibiga yozuvchining falsafiy-badiiy, adabiy-ilmiy qarashlari o'laroq singib ketadi. L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, A.Chexov, S.Moem kabi jahon, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, P.Qodirov kabi o'zbek yozuvchilari asarlaridagi muallif, roviy, adabiy qahramonlarning "ilmiylashgan mulohazalar"i bunga yaqqol misol bo'ladi. Ayni paytda, epik tafakkuri keng, global darajada fikrlaydigan yozuvchilar badiiy asar tarkibiga sig'magan fikr-qarashlarini "tajribalar", "o'ylar", "kundaliklar", "tundaliklar", "bitiklar" tarzida alohida nashr etishga jazm qiladilar. Shu bilan birga, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, T.Mann, S.Moem, Oybek, A.Qahhor, F.Kafka, P.Sart, A.Kamyu, A.Muxtor, O'Hoshimov kabi yozuvchilarning alohida va ilmiy yo'sinda yozilgan risola va maqolalari ham mavjud. Bularning barchasida yozuvchilar ijod va ijodiy jarayon, muayyan salaf va xalaf ijodkorlar asarlari haqida so'z yuritishsa ham, asosan, o'z ijod namunalarini taftish qilishni bosh maqsad qilib oladilar. Bularning barchasi tadqiqotchi uchun muhim hisoblanadi. Xususan, ijodkor laboratoriyasini o'rganishda metodologik kalit vazifasini bajaradi. Buning o'zbek adabiyoti tarixidagi klassik namunasini buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" tazkirasi va boshqa adabiyot haqidagi qarashlari aks etgan asarlarida kuzatamiz. Boburning "Boburnoma"sidagi Navoiy va unga zamondosh ijodkorlar haqidagi fikr-mulohazalar, turkiy va forsiy tilda bitilgan tazkiralari, risola va majmualar, devonlarga yozilgan so'z boshlarda ham ushbu jihat namoyon bo'lgan. Shuni ham e'tiborda tutish joizki, klassik adabiyotda ijodkorning estetik qarashlari aniq, lo'nda va izchil tarzda bayon etiladi. An'analarga rioya etish va ularni davom ettirish tamoyili ham bu davr adabiyotiga xos xususiyatdir. Zamonaviy o'zbek adabiyotida esa bunday an'analari u qadar izchil davom 33 etmaganini ko'ramiz. Buning asosiy sabablaridan biri sobiq sho'ro tuzumining yozuvchilar oldiga aniq majburiyatlar qo'yganidir. Oqibatda erkin ijodiy muhitdan mahrum qilingan ijodkorlar faqat tuzumga bo'ysungan holda fikr-qarashlarni bayon etishga majbur bo'lganlar. Mustaqillik arafasi va istiqlolning dastlabki yillariga kelib yozuvchi-shoirlarimizning adabiy jarayonga faol aralashuvi, adabiyotning asosiy vazifasi va yangilanish jarayonlari haqidagi fikr-mulohazalari, kuzatuvlari o'zbek adabiyoti masalalarini jahon adabiyoti kontekstida talqin va tadqiq etishga, ijodkor "men"i va shaxsiyati haqida yangi-yangi qarashlarni dadil ayta boshlashlariga zamin yaratdi. Chunki bu davrga kelib ijodiy erkinlikka yo'l ochildi, adabiy jarayonda jahon adabiyotiga xos turli ijodiy eksperimentlar, izlanishlar vujudga kela boshladi. Natijada, mustaqillik yillarida sho'ro davri tafakkur tarzidan farq qiluvchi ko'p qirrali, plyuralistik shakldagi adabiyot va uning tadqiqi talqinlari vujudga keldiki, bunda shoir-yozuvchilarimizning ham o'rni alohida. Muallif adabiy-estetik qarashlarini unga xos sof badiiyijodiy konsepsiya bilan qiyosiy tadqiq etish ijod psixologiyasini o'rganishning muhim

shartlaridan biri hisoblanadi. Adabiy estetik qarashlar va ijodiy prinsiplar parallelizmi yozuvchi poetik konsepsiyasini to'g'ri belgilash uchun muhim omil bo'lishi bilan bir qatorda, uning joriy adabiy muhitda tutgan o'rni hamda vazifasini belgilashda ham qo'l keladi. Ijod jarayonida yozuvchi shaxsiyati, real hayot prinsiplari, turmush tarzi, psixologik holatlarining badiiy ijod jarayoni bilan parallel namoyon bo'lishi o'ta murakkab va chigal hodisa hisoblanadi. SHu ma'noda ijodiy parallelizmni doimiy tarzda yagona tempda kechadigan, uyg'unlikdan iborat silliq jarayon deb qarash to'g'ri emas. Ijodiy parallelizm ba'zan yozuvchi estetik qarashlarining ijod namunasida tasdiqlanishi tarzida namoyon bo'lsa, ba'zan buning aksi ham bo'lishi mumkin. Ijodkor estetik qarashlarida e'tirof etilgan biron bir tushuncha, fikr-qarash yoki shaxs tabiati, psixologiyasiga xos holat badiiy asarda inkor etilishini ham tabiiy qabul qilish lozim. Bizningcha, buning uchta sababi mavjud. Birinchisi, badiiy ijod dunyosiga singib ketgan yozuvchi endilikda tamomila boshqa odamga – "muallif obrazi"ga aylanadi. U endi o'zi istagan taqdirda ham o'sha asar mantig'idan tashqariga chiqolmaydi. Boshqacha aytganda yozilayotgan asar ohangida "raqsga tushishga" majbur bo'ladi. Ikkinchidan, bir oddiy inson sifatida yozuvchi ham ijtimoiy-psixologik holatlar, maishiy majburiyat, yosh o'tishi bilan bog'liq murakkab jarayonlar bois o'zgarishi, dastlabki yillardan o'zgacharoq fikrlay boshlashi mumkin. Uchinchidan, jahon adabiyotidagi ulkan ijodkorlar biografiyasi va asarlarini bir butun kuzatish shundan dalolat beradiki, katta adabiyotga daxldor, o'ta iste'dodli, daho ijodkorlar shaxsiyati o'ta ziddiyatli bo'ladi. O'z-o'zini inkor etish, ilk asarlaridan voz kechib, tamomila o'zga shakl va yo'nalishda ijod etish holatlari jahon yozuvchilari biografiyasida tez-tez uchrab turadi. L.Tolstoy, J.Joys, F.Kafkalar ijodi bunday xulosa qilishimizga to'la asos beradi. Ammo, shuni alohida qayd etishni istardikki, bu holat ham tabiiy tarzda ijodiy parallelizmnining bir qirrası sifatida qabul qilinishi va o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'zining umrboqiy ijodi bilan nafaqat rus, balki dunyo adabiyotida munosib o'ringa ega bo'lgan L.Tolstoy shaxsiyati, adabiy-estetik qarashlari va ijodiy konsepsiyasidagi tasdiq hamda inkor holatlari izchil tarzda kuzatiladi. Tolstoy adabiyotning ko'plab tur va janrlarida qalam tebratgan serqirra ijodkor bo'lishi barobarida falsafiy, tabiiy, ijtimoy-gumanitar va diniy ilmlarni ham mukammal egallagan edi. O'z ijodiy faoliyatida har doim adolatli, to'g'ri so'z bo'lishga, aytganiga amal qilishga uringan. Ayni paytda o'z prinsiplaridan chekinmagan holda inson umri mohiyati, hayotning tub mazmunini anglashga intilgan. Bu jihat yozuvchining barcha asarlarida u yoki bu darajada ko'zga tashlanadi. Ayni paytda prof. Ozod Sharafiddinov tarjima qilgan "Iqrornoma" ("Ispoved") asari L.Tolstoy ijodiy biografiyasining oynasi hisoblanadi. O.Sharafiddinov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Iqrornoma"dagi asosiy masala inson hayotining ma'nomohiyati, imon-e'tiqod, vijdon, diyonat haqidagi o'y- mulohazalar, yashashdan maqsad nimaligini anglash yo'lidagi sa'y-harakatlar, adoqsiz ruhiy iztiroblar, anglab etilgan haqiqatu iqrorlardir. Mazkur asarni o'qir ekanmiz, adibning iztirobli kalb kechinmalariga guvoh bo'lamiz. Uning oilasiga, xotini va qizlariga, xizmatkorlari va atrofdagilarga, keng ma'noda butun jamiyatu tabiatga, borliqqa bo'lgan munosabatida umid bilan umidsizlik, ishonch bilan ishonchsizlik mudom o'rin almashib turganiga guvoh bo'lamiz. Adib o'z ruhiyatida kechayotgan ma'naviy inqirozlarni, qalb evrilishlarini sayyoh haqidagi sharq masali orqali ham ifoda etadi. O'zini masal qahramoni sayyohga mengzaydi. Masalda sayyoh yirtqichlardan qochib o'zini suvsiz quduqqa tashlaydi, biroq quduq tubida dahshat solib turgan yovuz ajdaho uning joniga xavf soladi. Shu bois quduq devoridagi yoriqdan o'sib chiqqan va sichqonlar kemirayotgan butaga muallaq osilib jon saqlagan sayyoh garchi umri poyonlashayotganini anglab tursa-da, butada yiltillab tomayotgan

asalni yalashga tushib ketadi. Osilib turgan butasini kemirayotgan oq va qora sichqonlarni nazardan qochiradi. Tolstoy bu masal voqealaridan kelib chiqadigan ramziy ma'noni o'z hayotiga muqoyasa qiladi. Masaldagi sayyoh – umr yo'lini bosib o'tayotgan inson. Jarlik tubidagi ajdaho – o'lim va oxirat. Uni quvlab kelgan tuya – er yuzida insonga berilgan o'tkinchi umr, to'xtashni bilmaydigan vaqt. Butadagi asal – o'tkinchi dunyoning aldamchi lazzati. Oq va qora sichqonlarlar esa inson umrini kemirayotgan, abadiy almashinib turuvchi kun va tun ramzlaridir. Xo'sh, unda hayotning, yashash, ishlash ijod qilishning ma'nosi nima? Inson nimaga tug'iladi-yu qayoqqa ketadi? L.Tolstoy shu haqda fikr yuritadi. SHu savollarga javob izlaydi. Boshidan o'tkazgan kunlar, holatlar, fikr-xayollar tog'ini o'rganadi, taftish etadi. "Menga "sen hayotning ma'nosini tushuna olmaysan, bu haqda hadeb o'ylaverma, yashayver", deb har qancha uqtirishmasin, men buni qilolmayman,-deb yozadi L.Tolstoy. Chunki avvallari buni ancha uzoq muddat davomida qilganman. Endilikda qarshimdan yugurib ketayotgan va meni o'lim sari eltayotgan kun 36 bilan tunni ko'rmasligimning iloji yo'q. Men faqat shuni ko'raman, negaki faqat shugina haqiqatdir. Qolgan narsalarning hammasi – yolg'on!" Chunki L.Tolstoydek mutafakkir o'ylamay, fikrlamay, o'z savoliga javob topmasdan yashay olmasdi. Shu bois haqiqatni anglash maqsadida dunyoviy ilmlardan, so'ng diniy ilmlardan javob izlaydi. Bu davrda xuddi XX asr boshidagi "qadimchi"lar bilan "jadid"lar o'rtasida bo'lganidek saralanish jarayoni boshlandi. Mustaqillik bu jarayonda ilg'or dunyoqarashga ega bo'lgan "sho'ro qoliplari"ni inkor etuvchi, jahon adabiyotiga xos ilg'or ifoda usullarini o'zbek adabiyotiga dadil tatbiq etayotgan bir guruh yozuvchi va shoirlarni etishtirdi. Ularning ayrimlari o'z ijodini 70-yillarning oxiri 80-yillarning boshlarida boshlagan va o'zlarining yangicha konsepsiyalari, davr adabiyotidan farqlanuvchi ijodi bilan ko'zga ko'ringan avlod bo'lsa, ayrimlari mustaqillik yillarida ijod maydoniga kirib kelgan ijodkorlardir. Bular oldingi avlodlardan hayot tarzi, falsafasi, adabiy-nazariy qarashlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadilar. Jahon adabiyotida kechayotgan tendensiyalar, falsafalar, estetik qarashlar, psixologik jaryonlardan bevosita xabardorlar. SHu bois ular yaratayotgan asarlar avvalgilardan falsafiy teranligi, ramziyligi va psixologik talqinlarning serqatlamligi bilan farqlanadi. Biz bu o'rinda M.M.Do'st, E.A'zam, A.A'zam, X.Sulton, X.Do'stmuhammad, O.Otaxon, T.Murod kabi o'tgan asrning 80- yillarida adabiyot olamiga o'z "ovozi" va "soz"i bilan kirib kelgan yozuvchilarni nazarda tutmoqdamiz. 80-yillarning oxiri va 90-yillardan boshlab adabiy jarayonda faol ishtirok etib kelayotgan N.Eshonqul, T.Rustamov, L.Bo'rixon, A.Yo'ldoshev, U.Hamdani, S.Vafo, Z.Qurolboy qizi, I.Sultonlarni yuqorida nomlari sanalgan yangi avlodning izdoshlari deyish mumkin. Ular o'tgan davr maboynida nafaqat badiiy ijodlari bilan, balki adabiy-estetik qarashlarining o'ziga xosligi bilan ham adabiy jarayon qiyofasini o'zgartirishga urinmoqdalar. Ularning mustaqillikkacha va undan keyin yozilgan roman va qissalari, hikoyalarni ko'zdan kechirsak, bu fikrning haqiqat ekani oydinlashadi. Masalan, X.Sultonning "Yozning yolg'iz yodgori", M.M.Do'stning "Lolazor", E.A'zamning "Atoyining tug'ilgan yili", "Bayramdan boshqa kunlar" asarlari, O.Otaxon va A.A'zam, X.Do'stmuhammadning turkum qissa va hikoyalari mana shunday poetik o'zgarishlardan dalolat beradi. Bizningcha, adabiy jarayondagi bunday yangilanishlar jamiyat va individual ongda keskin reaksiya jarayonlari bilan izohlanadi. SHo'rolar tuzumining qulashi, milliy o'zlikni anglashga intilish, o'ttiz yil ichida ijtimoiy hayotda ro'y bergan keskin o'zgarishlar (qayta qurish, bozor iqtisodi, istiqloq, diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi) o'zbek yozuvchishoirlari individual badiiy tafakkurida shunday aks-sado berdi. Natijada o'zbek adabiyoti, xususan, epik tafakkurida tub yangilanishlar ko'zga tashlandi.

Adabiyotshunoslikdagi ijodiy jarayon va ijodkor shaxs tushunchalarining ildizlari insoniyatning uzoq tarixiga borib bog'lanadi. Insondagi erk va ozodlikka intilish ehtiyoji unda ijod ishtiyoqini tug'dirdi. Ijodiy jarayon esa o'zining adabiyestetik, falsafiy-psixologik omillariga ko'ra ko'p qirralidir. Ijodiy jarayon, birinchi navbatda, shaxsiy, psixologik hodisadir. Undagi ruhiy-ma'naviy ehtiyojlar va istaklar insonda ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishga omil bo'ladi. Ruhiy-ma'naviy ehtiyojlar ostida insonning ilohiyotga bo'lgan intilishi yotadi. Inson o'zi ko'rib, his etib yashayotgan dunyosidan o'zga dunyolar haqida fikr yuritganda uni beixtiyor ijodiy kayfiyat chulg'ab oladi. Shu yo'ldagi mashaqqat va izlanishlar san'at asarining dunyoga kelishiga omil bo'ladi. Moddiy-biologik ehtiyojlarning ham shaxs va ijodiy jarayonning shakllanishida muhim o'rni bor. Psixoanaliz asoschisi Z.Freyd ushbu hodisani o'rganar ekan, biryoqlama fikrlaydi. Inson ong osti istaklarining ijodiy quvvatga aylanish jarayonlarini uning biologik imkoniyatlari bilan cheklab qo'yadi. Olim garchi bu borada muayyan kashfiyotlar qilgan, salmoqli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ijodning ilohiy mohiyatini to'laligicha ochib berishga erisha olmagan. Badiiy tafakkur tarixida ijodkor shaxsiyati va ijodiy jarayonni ijtimoiy hodisalar bilan mushtarak talqin etish, shaxs tushunchasini ijtimoiy hayot voqeligiga bog'lab tushuntirishga urinishlar ham etarlicha uchraydi. Ammo badiiy ijod sof ijtimoiy hodisa bo'la olmaganidek, ijodiy jarayon va ijodkor shaxsi ham butkul ijtimoiy hodisa bo'lishi mumkin emas. Bu fikrning to'g'riligini sobiq sho'rolar davri adabiy siyosatining inqirozi to'la tasdiqlab turibdi. Tom ma'nodagi badiiy ijod va ijodkor shaxsiyati, bizning xulosamizga ko'ra, yuqorida sanalgan barcha jarayonlarni o'zida mujassam etadi. Ya'ni shaxs o'zini o'rab turgan ilohiy, ma'naviy, ijtimoiy, falsafiy, milliy va umuminsoniy muhit ta'siridan xoli tarzda namoyon eta olmaydi. Ilohiylik, insonning biologik, ijtimoiy, psixologik, ruhiy-ma'naviy olami, bilimtajribasi bir butun holatda ijodkor shaxsi hamda ijodiy jarayonni tashkil etadi. Har bir ijodkorda shaxs va uning estetik pozitsiyasi parallel holatda namoyon bo'ladi. Har bir badiiy asarning yaratilishida shubhasiz ijodkorga turtki bo'lgan, uni ijodiy jarayonga undovchi bir qator ichki va tashqi omillar mavjud. Bunga tashqi omil sifatida ijtimoiy hayot unda kechayotgan muayyan voqea va hodisalar, umuman olganda istalgan narsa-hodisalar bo'lsa, ichki omil sifatida ijodkor "men"idagi ichki evrilishlar, kechinmalar, ta'sirlanish va hokazolar orqali ijodga bo'lgan intilish, ya'ni ilhomning paydo bo'lishidir. Ilhom yozuvchini badiiy ijodga yo'llaydigan, otlantiradigan psixologik omildir. Ilhom bilan yozilmagan asar quruq, hissiz va tuyg'usiz bo'lib qoladi, kitobxonda hech qanday munosabat uyg'otmaydi. Ilhom esa badiiy asarning zavqshavq, pafos bilan yaralishiga olib keladi. Ilhomning muhim xususiyatlaridan biri badiiy asardagi psixologik talqinlarning kitobxonga "yuqishiga" zamin tayyorlashda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.
2. Фалсафа энциклопедик луғат.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
3. Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
4. Психология. Қисқача изоҳли луғат.(Тузувчилар:М.Г. Давлетшен, Ё. Алимкулов, А. Убайдуллаев, У.Умаров, Ф. Алимова, С. Тўйчиева. Нашрга тайёрловчилар:С.Содиқоа, У. Умаров. – Тошкент: н-рсиз, 1998.
5. Яноух Г. Кафка билан суҳбатлар// Жаҳон адабиёти. 2006, № 4.
6. Раҳмат Р.Адабиётдан чиқиш – Тошкент: Akademnashr, 2015

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.